

4-sinf savollari

- 1 (3,1 ball) Ozod "TASHKENTIMO" so'zini yonma-yon tarzda bir necha marta yozdi. Agar u hammasi bo'lib 70 ta harf ishlatgan bo'lsa, necha marta bu so'zni yozgan?

IZOH: "SH" ni bitta harf deb hisoblang.

A)5 B)6 C)7 D)8

- 2 (3,1 ball)



Yuqorida berilgan har bir juftlikdagi qog'ozlarga yozilgan raqamlar yig'indisi 10 ga teng. Shunga ko'ra, quyidagi hisoblashni bajaring.

$$\text{Red box} \times \text{Blue box} - \text{Yellow box} + \text{Green box}$$

A)12 B)8 C)4 D)5

- 3 (3,1 ball) Azizaning konfetlari soni, Mehribonning konfetlari sonidan 7 ta ko'p edi. Kechgacha Aziza o'zining konfetlaridan 4 tasini, Mehribon esa o'zining konfetlaridan 2 tasini yedi. Endi Azizaning konfetlari soni Mehribonning konfetlari sonidan necha ko'p?

A)1 B)3 C)5 D)9

- 4 (3,1 ball) Chigirtka olmaning yarmini 3 kunda yeydi. Shu chigirtka 2 ta olmani necha kunda yeydi?

A)12 B)9 C)6 D)15

- 5 (3,1 ball) Chumoli eni 2 metr, bo'yi esa 4 metr bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydon atrofini 3 marta aylanib chiqdi. U hammasi bo'lib, necha metr masofa yurgan?

A)6 B)18 C)54 D)36



TASHKENT
INTERNATIONAL
MATHEMATICS
OLYMPIAD

- 6 (4,2 ball) Abbas 12000 so‘m pulga 7 ta daftar sotib olib, ularning har birini 2500 so‘mdan sotdi. U hammasi bo‘lib, necha so‘m foyda qilgan?
A)17500 B)5500 C)4500 D)6500


- 7 (4,2 ball)



2015 - yilda men 10 yoshda edim. Onam mendan 22 yosh katta, dadam esa onamdan 4 yosh katta.


Hozir 2024 - yil. Dadam va onamning hozirgi yoshlari yig'indisini toping.

- A)68 B)77 C)86 D)96
- 8 (4,2 ball) Hoshim ko‘p qavatli binoning 3-qavatida, Behruz-7 qavatida, Ozod esa 10-qavatida yashaydi. Ozod va Behruz yashaydigan qavatlar orasidagi masofa, Hoshim va Ozod yashaydigan qavatlar orasidagi masofadan 12 metr qisqa. Shunga ko‘ra, Behruz va Hoshim yashaydigan qavatlar orasidagi balandlikni toping.
A)8 m B)12 m C)16 m D)20 m
- 9 (4,2 ball) Sevinchning kulchalari soni Mohiraning kulchalari sonidan 3 marta ko‘p edi. Sevinch yana 14 ta kulcha pishirganidan so‘ng, undagi kulchalar soni Mohiraning kulchalari sonidan 5 marta ko‘p bo‘lib qoldi. Dastlab Sevinchda nechta kulcha bor edi?
A)35 B)21 C)25 D)24
- 10 (4,2 ball) Quyida rasmdagi shaklning berilgan to‘g‘ri chiziqqa nisbatan simmetrik bo‘lgan shaklini toping.




TASHKENT
INTERNATIONAL
MATHEMATICS
OLYMPIAD

- 11 (5,3 ball) Quyidagi rasmda karton qog'ozi berilgan.





Shu ko'rinishdagi 2 ta karton qog'ozni birlashtirish orqali quyida berilgan shakllarning nechtasini hosil qilish mumkin?




- A)3 ta B)2 ta C)1 ta D)0 ta

- 12 (5,3 ball) To'g'ri to'rtburchak shaklidagi qog'oz bo'lagi dastlab eni bo'ylab keyin esa bo'yi bo'ylab teng ikkiga buklandi. Shundan so'ng rasmdagi kabi bir nechta shakllar qirqib olindi. Natijada qog'oz bo'lagini yoyganimizda quyidagilardan qaysi biri hosil bo'ladi?




TASHKENT
INTERNATIONAL
MATHEMATICS
OLYMPIAD

- 13 (5,3 ball) Quyidagi rasmni markaziga nisbatan burib, javoblarda berilgan shakllardan qaysi birini hosil qilish mumkin?



- 14 (5,3 ball) Quyidagi jismga yuqoridan qarab javoblarda berilgan shakllardan qaysi birini ko'rish mumkin?



- 15 (5,3 ball) Stolda bir nechta qog'oz bo'laklari teskari turibdi. Har bir qog'oz bo'laklarining orqa tomoniga 3 yoki 4 raqami yozilgan. Qog'ozlar teskari holatda turgan bo'lib, undagi sonlarni ko'rib bo'lmaydi. Stol ustidan eng kamida nechta qog'oz bo'laklarini olganda bir nechtasining yig'indisi 12 bo'lgan sonlarni aniq uchratish mumkin?

A)7 B)4 C)5 D)6

- 16 (7,4 ball) Sardorning soati 13:40 da to'satdan buzilib qoldi. Bunda sekund mili odatdagidan 2 marta tezroq harakatlanishni boshladi va har 8 marta oldinga harakatlanganda 2 marta orqaga yuradigan bo'lib qoldi. Sardorning soati birinchi marta 16:10 bo'lganda, haqiqiy vaqt necha bo'ladi?

A)15:45 B)15:25 C)17:50 D)16:40



TASHKENT
INTERNATIONAL
MATHEMATICS
OLYMPIAD

4-sinf savollari



- 17 (7,4 ball) Hasan do'konda ishlaydi. Bugun unda ishni boshlashidan oldin ma'lum miqdorda pul bor edi. 3 ta kitob va 6 ta daftar sotganidan so'ng, uning puli 45\$ bo'ldi. Shundan keyin yana 1 ta kitob va 3 ta daftar sotganidan keyin undagi pul miqdori 56\$ bo'ldi. Quyidagilardan qaysi biri Hasanning dastlabki pul miqdori bo'lishi mumkin?

A)18\$ B)24\$ C)11\$ D)36\$

- 18 (7,4 ball) Muhammad "Yosh iqtidor" bog'idan bir qancha olma va nok terdi. U endi bog'dan chiqishi uchun uchta eshikdan o'tishi kerak. Birinchi eshik oldida 1 ta qorovul, ikkinchi eshik oldida 2 ta qorovul, uchinchi eshik oldida esa 1 ta qorovul bor. Birinchi eshikdan chiqish uchun Muhammad qorovulga olmalarining yarmini, ikkinchi eshikdan chiqish uchun har bir qorovulga 4 tadan olma va 3 tadan nok, uchinchi eshikdan chiqish uchun esa qorovulga qolgan noklarining yarmini berdi. Agar Muhammadda 20 ta olma va 16 ta nok qolgan bo'lsa, dastlab unda jami nechta meva bo'lgan?

A)94 B)79 C)86 D)88

- 19 (7,4 ball) Quyida berilgan kub yoyilmasi yig'ilganda qanday shakl paydo bo'ladi?



- 20 (7,4 ball) G'afforov Sardorning 3 ta farzandi bor. G'afforova Maryam, G'afforova Fotima va G'afforov Ayyub. Bu oila Momiq ismli toshbaqa va Boychibor ismli ot boqadi. Oilaning eng katta farzandi Maryam tug'ilganda, Momiqning yoshi Boychiborning yoshidan 3 marta katta edi. Keyingi farzand Fotima tug'ilganida esa Momiqning Yoshi Boychiborning yoshidan ikki marta katta edi. Fotima tug'ilganidan so'ng, oradan 5 yil o'tib Ayyub tug'ildi va o'shanda Maryam 18 yoshda edi. Ayyub tug'ilganida Boychibor necha yoshda bo'lgan?

A)33 B)31 C)29 D)35



TASHKENT
INTERNATIONAL
MATHEMATICS
OLYMPIAD